TA’LIM TIZIMIGA “HYBRID LEARNING” MODELINI JORIY QILISHDAGI METODOLOGIK ASOSLAR VA STRATEGIK QIYINCHILIKLAR

Tojiddinova Aziza Akmal qizi
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23006065

Annotatsiya: Maqolada gibrid o‘qitishning texnik va metodologik jihatlari, xususan, o‘quvchi markazli yondashuv asosida tashkil etilishi tahlil qilinadi. Auditoriyaviy va onlayn ta’limning uyg‘unligi, raqamli-analog va frontal-interaktiv ta’lim dixotomiyalari, shuningdek, HyFlex modeli orqali gibrid o‘qitishning zamonaviy amaliyoti ko‘rib chiqiladi.

Annotation: The article analyzes the technical and methodological aspects of hybrid learning, focusing on its learner-centered approach. It examines the integration of classroom and online instruction, the digital-analog and frontal-interactive teaching dichotomies, as well as the modern practice of hybrid learning through the HyFlex model.

Kalit so‘zlar: Gibrid o‘qitish, Learner-centered yondashuv, HyFlex modeli, Raqamli va analog ta’lim, Frontal va interaktiv o‘qitish, Sinxron va asinxron ta’lim.

Keywords: Hybrid learning, Learner-centered approach, HyFlex model, Digital and analog learning, Frontal and interactive teaching, Synchronous and asynchronous learning.

Ko‘rib chiqilgan gibrid o‘qitish xususiyatlarini formal (texnik) jihatlarga oid deb atash mumkin. Ammo o‘qitish formatining asosi uning metodologik konsepsiyasidan iborat. Aralash, gibrid va "aylantirilgan" o‘qitish variantlarini ta’riflagan olimlar, ushbu formatlarning barchasining asosida o‘qituvchiga emas, balki o‘quvchiga — uning qiziqishlari va faoliyatiga e’tibor qaratish yotadi (learner-centered approach)[1]. Bizning fikrimizcha, bunday konsepsiya o‘qitish faoliyatini to‘liq o‘qituvchi nazorat qiladigan tizimdan, o‘quvchining faoliyatini tashkil etishga (active learning) o‘tishni anglatadi, ya’ni o‘qitishning markazi o‘qituvchidan o‘quvchiga, uning o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashga, masalan, muammoli o‘qitish doirasida o‘tadi.

“Learner-centered” o‘qitish paradigmasining konseptual xususiyati — bu o‘quvchining sub’ektivligi. Bundan ko‘rinadiki, **“learner-centered”** ya’ni o‘quvchi markazli yoki o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘qitish jarayoni o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va faoliyatiga qarab tashkil qilinadi, o‘qituvchi esa o‘quvchini o‘rganish jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi va yo‘naltiruvchi rolni o‘ynaydi. Gibrid o‘qitishning asosiy xususiyatlarini umumiy kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatilganda, auditoriyaviy (kontaktli) o‘qitish va onlayn o‘qitishning integratsiyasi (integration of classroom instruction and online learning[2], online learning and face-to-face instruction[3]) deb ta’kidlanadi.

[1] Saichaie K. (2020) Blended, Flipped, and Hybrid Learning: Definitions, Developments, and Directions. New Directions for Teaching and Learning, vol. 2020, iss. 164, pp. 95–104. https://doi.org/10.1002/tl.20428

[2] Müller C., Mildenberger T. (2021) Facilitating Flexible Learning by Replacing Classroom Time with an Online Learning Environment: A Systematic Review of Blended Learning in Higher Education. Educational Research Review, vol. 34, no 1, Article no 100394. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2021.100394

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tadqiqotchilar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotga asoslangan o‘qitish va mustaqil onlayn o‘qitish o‘rtasidagi farqlarni ta’kidlaydilar. Ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda gibrid o‘qitish, shuningdek, gibrid ta’lim muhiti (hybrid learning environment) nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi, bu esa nafaqat gibrid o‘qitishni, balki gibrid formatda o‘qitishni (hybrid teaching, hybrid classroom instruction) ham o‘z ichiga oladi[4].

R. Garison va X. Kanuka gibrid o‘qitishni o‘quvchilarning ta’lim tajribasi asosida tavsiflaydilar, bu tajriba kontaktli va onlayn o‘qitish natijasida shakllanadi (thoughtful integration of classroom face-to-face learning experiences with online learning experiences)[5]. Bunday kontekstda gibrid o‘qitishning metodologik xususiyati o‘quvchining sub’ektivligi bo‘ladi, ya’ni o‘quvchi o‘z ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab darsda yuzma-yuz ishtirok etish yoki onlayn ulanishni tanlashi mumkin. Sub’ektivlikka e’tibor qaratish o‘quvchining o‘z ta’limini tanlashda javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini anglatadi. Aynan raqamli ta’lim sharoitlari o‘quvchiga to‘liq sub’ektiv pozitsiyani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Gibrid formatdagi o‘qitish va auditoriyaviy o‘qitish o‘rtasidagi o‘xshashlik shundaki, ikkalasi ham o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida sinxron muloqotni o‘z ichiga oladi va ta’lim maqsadlariga erishish uchun mo‘ljallangan[6]. Muxtasar qilib aytganda, K. Linder, ushbu formatlar orasidagi konseptual (texnik emas) farqning ahamiyatini ta’kidlaydi va agar ular o‘quvchilarning o‘qish maqsadlariga asoslansa, o‘quv strukturalari juda o‘xshash bo‘lishini qayd etadi.

Gibrid o‘qitish formatidagi darslar o‘quvchi tomonidan qabul qilingan o‘qish variantini aks ettiradi: auditoriyada bo‘lish va o‘qituvchi va boshqa o‘quvchilar bilan yuzma-yuz aloqada bo‘lish yoki maxsus texnik qurilmalar orqali ta’lim jarayonida ishtirok etish, ya’ni bilvosita. Shu bilan birga, o‘quvchi uchun gibrid format, o‘qituvchini va boshqa o‘quvchilarni ko‘rish va eshitish, taqdim etilgan o‘quv materiallarini qabul qilish, o‘quv vazifalarini bajarish, o‘qituvchi tomonidan baholanib, baho va qayta aloqa olish imkoniyatini anglatadi.

Gibrid o‘qitishni alohida kategoriya sifatida tavsiflashda tadqiqotchilar faqat o‘qitishning turli formatlari (auditoriyaviy va onlayn) o‘rtasidagi nisbati bilan emas, balki ikki bog‘liq dixotomiyani ham inobatga olishadi: "raqamli yoki analog ta’lim", "interaktiv yoki frontaldan o‘qitish" (onlayn amaliyotlar va qarorlar kontekstida)[7]. **Dixotomiya** ikkita qarama-qarshi yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tomonlardan iborat bo‘lib, bu biron bir konseptni yoki hodisani tushunishda yoritilgan ikki asosiy nuqtani ko‘rsatadi[8]. Demak, dixotomiya, asosan, ikki qarama-qarshi yoki kontrastli tushunchaning aniq farqini ko‘rsatishda qo‘llaniladi, bu o‘z navbatida masalaning yanada chuqurroq tahlil qilinishiga yordam beradi. Yuqoridagilarni inobatga olib, tadqiqotchilar nazarda tutgan ikki bog‘liq dixotomiyaga ta’rif berishga

[3] Alammary A., Sheard J., Carbone A. (2014) Blended Learning in Higher Education: Three Different Design Approaches. Australasian Journal of Educational Technology. vol. 30, no 4, pp. 440–454. https://doi.org/10.14742/ajet.693

[4] Ulla M.B., Perales W.F. (2022) Hybrid Teaching: Conceptualization through Practice for the Post COVID19 Pandemic Education. Frontiers in Education, vol. 7, pp. 1–8. https://doi.org/10.3389/feduc.2022.924594

[5] Garrison D.R., Kanuka H. (2004) Blended Learning: Uncovering Its Transformative Potential in Higher Education. The Internet and Higher Education, vol. 7, no 2, pp. 95–105. https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2004.02.001

[6] Linder K.E. (2017) Fundamentals of Hybrid Teaching and Learning. New Directions for Teaching and Learning, vol. 2017, iss. 149, pp. 11–18. https://doi. org/10.1002/TL.20222

[7] Alkanova O.N., Ananin D.P., Bajzarov A.E., Barannikov K.A. et al. (2022) Belaya kniga. Gibridnoe obuchenie [White Book. Hybrid Learning]. Moscow: Grin Print.

[8] https://izoh.uz/word/dixotomiya

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

urinib ko‘ramiz: **Raqamli va analog** — bu bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita texnologiya yoki usulni ajratish: raqamli texnologiyalar (kompyuterlar, internet) va analog texnologiyalar (magnetofon lentalari, analog televizor). **Interaktiv va frontaldan o‘qitish** — o‘qitishning ikki turini ajratish: interaktiv (o‘quvchi faol ishtirok etadigan) va frontaldan o‘qitish (o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan, o‘quvchilarning passiv ishtiroki).

"Raqamli-analog" dixotomiyasi XX asrning 60-70-yillarida, birinchi raqamli texnologiyalar maktab va universitetlarda paydo bo‘lganda, dasturlashtirilgan o‘qitish konsepsiyasi va turli o‘qitish formatlarining samaradorligini muhokama qilish diskursi rivojlanishi bilan yuzaga keldi. Umuman olganda, kompyuter texnologiyalari va 2000-yillarning mobil inqilobi, M. Barber, K. Donnelly va S. Rizvi tomonidan "An Avalanche is Coming" kitobida[9] ta’kidlanganidek, raqamli ta’lim va uning didaktikasining asosiy xususiyati o‘quvchining o‘qish mazmuniga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratishdir, ya’ni bu raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv boshqariladigan o‘qitish paradigmasiga o‘tishni ta’minlaydi.

“Frontal — interaktiv” dixotomiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning xarakterini o‘zgarishini aks ettiradi. Frontal o‘qitish bir yo‘nalishli bo‘lib, bunda talabalarning harakatlarini o‘qituvchi boshqaradi, interaktiv o‘qitishda esa talaba subyektivlikni namoyon etadi va o‘quv strategiyalarini tanlashda yuqori darajadagi erkinlikka ega bo‘ladi.

Gibrid o‘qitishning xususiyatlari eng to‘liq shaklda hozirda shakllanayotgan HyFlex («hybrid flexible», moslashuvchan gibrid) amaliyotida namoyon bo‘ladi. Bu amaliyot sinxron va asinxron ishtirokni integratsiya qilib, talabalar uchun kurs yoki ta’lim dasturini o‘zlashtirishda qatnashishni ta’minlaydi. Ushbu format talabalar uchun fazoviy-vaqtiy chegaralarni yo‘q qiladi, o‘qitish jarayonini tashkil qilishda yangi texnik va metodologik talablarni qo‘yadi, gibrid formatga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlariga talabalarni jalb qilishda maxsus marketing strategiyasini talab qiladi, va akademik harakatchanlik haqida tasavvurni o‘zgartirib, ta’lim kontinumini yaratadi. HyFlex amaliyotida gibrid o‘qitishni kategoriya sifatida tavsiflash uchun yana bir asos paydo bo‘ladi — “oldindan aniqlangan yoki subyektiv” dixotomiya[10]. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gibrid va aralash modellarni birlashtirgan HyFlex modeli mavjud bo‘lib, bu model onlayn va an’anaviy darslarni, sinxron va asinxron faoliyatlarni birlashtiradi.

Dunyodagi ko‘plab yetakchi universitetlar, masalan, Gonkong universiteti va Vashington universiteti o‘zlarining gibrid o‘qitish modellari tajribasini tasvirlaydilar. HyFlex ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha peshqadam bo‘lgan Kolumbiya universiteti, moslashuvchan gibrid formatni tashkil etish prinsiplarini ta’kidlaydi: talabalarga tanlash huquqini berish (learner choice), formatlarning tengligi (equivalency), mazmunni turli formatlarda ishlatish imkoniyati (reusability) va mavjudlik (accessibility). Gibrid formatda o‘tkaziladigan kursda barcha talabalar bir xil miqdorda onlayn va oflayn darslar o‘tishlari kutiladi. HyFlex formatining xususiyati shundaki, talabalar kursda qatnashish formatini tanlash imkoniyatiga ega: darslarga auditoriyada shaxsiy ravishda qatnashish, videokonferensiya orqali auditoriya darslariga qatnashish va to‘liq asinxron formatda CourseWorks platformasi yordamida qatnashish. Bu model asosan oliy ta’limda keng qo‘llanilsa ham, ba’zi umumta’lim maktablari, ham uni sinovdan o‘tkazmoqda. Bunga misol qilib, Singapur, AQSh, Kanada, Avstraliya, Germaniya va Buyuk Britaniya mamlakatlari maktablarini olishimiz mumkin.

[9] Barber M., Donnelly K., Rizvi S. (2013) An Avalanche is Coming. Higher Education and the Revolution Ahead. London: The Institute for Public Policy Research.

[10] Beatty B.J. (2019) Hybrid-Flexible Course Design: Implementing Student-Directed Hybrid Classes. EdTech Books. https://doi.org/10.59668/33

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Bizning fikrimizcha, moslashuvchan gibrid kursi o‘quv mashg‘ulotlari va materiallarni maktab bitiruvchi o‘quvchilari uchun darslar davomida yoki keyin onlayn yoki offlayn formatda mavjud qilish imkonini beradi. Shunday qilib, bitiruvchi sinf o‘quvchilari o‘quv maqsadlariga ishtirok formatidan qat’i nazar erishadilar. Bunda dars uchun aniq formatlar orasidagi minimal nisbati bo‘yicha talablar belgilanishi mumkin.

Bunday fikrlarni asoslash uchun, quyida HyFlex modelining o‘ziga xos asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rib chiqamiz (1.4-1.5-rasmga qarang):

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1.4-rasm. HyFlex modelining asosiy xususiyatlari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1.5-rasm. HyFlex modelining kamchilik va afzalliklari

Demak, HyFlex formatining imkoniyatlari uni universal qiladi, uning shartlari alohida formatlarning cheklovlarini yumshatadi. Maktablarning tajribasini tahlil qilish, xususan, o‘qituvchilarga aralash ta’limga o‘tish uchun berilgan ko‘rsatmalar va tavsiyalar, bu muhitda aralash ta’limning eng muhim xususiyati sifatida ta’lim jarayonida ishtirokchilarning sinxron o‘zaro ta’sirini ajratish mumkinligini ko‘rsatadi. "Hybrid learning" tushunchasini operatsionalizatsiya qilish va uning samaradorligini tahlil qilishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar olib borilayotgan tadqiqotlarning o‘rta ta’limdagi aniq ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Boshqa tomondan, "hybrid learning"

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tushunchasining evolyutsiyasi, uning terminologik beqarorligi va o‘rta ta’limda aralash ta’limni qo‘llashning o‘zgaruvchan shartlari, aralash ta’limni alohida kategoriya sifatida yanada chuqurroq o‘rganish uchun istiqbollarni belgilaydi. Ushbu ish aralash ta’lim haqidagi ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga va COVID-19 tarqalishi tufayli joriy etilgan epidemiologik cheklovlar davrida, shuningdek, ularning asta-sekin bekor qilinishi davrida o‘rta ta’limda aralash ta’lim modellarini qo‘llashdagi amaliyotning dolzarbligiga hissa qo‘shadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, HyFlex modeli ham aynan universitetlarda rivojlanib, mamlakatimizdagi maktablarda uncha joriy qilinmagan va bunga bir qancha strategik muammolar sabab bo‘ladi:

Tajriba yetishmasligi va uning ta’lim imkoniyatlarini baholashdagi qiyinchiliklar. Gibrid ta’limni joriy etish, aslida, tajriba sifatida qaraladi. Biroq, hozirgi kunda bu tajriba maktablarda keng miqyosda, majburiy ravishda amalga oshirilmayapti. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va xalqaro huquq me’yorlarida belgilanishicha, insonlarning roziligisiz tajriba o‘tkazish yoki ularning huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Gibrid ta’limni joriy etishdagi asosiy muammo shundaki, bu jarayon hozirgi ta’lim tizimiga qarshi qator cheklovlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Gibrid ta’limning rivojlanishi va mavjud muammolar. Uzoq vaqt davomida gibrid ta’lim an’anaviy ta’lim formatiga nisbatan bir qancha omillar sababli orqada qolmoqda. Bunga, eng avvalo, malakali kadrlarning yetishmasligi, zamonaviy ta’lim realiyalari bilan qarama-qarshiliklar, texnik infratuzilmaning zaifligi kabi faktorlar ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sinfni "vaqtinchalik" jamoa sifatida tashkil etish va shakllantirish muammosi. Bugungi kunda maktab ta’lim jarayonida o‘quvchining ijtimoiy shakllanishiga katta e’tibor qaratiladi. Maktabning asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy funksiyani bajarishdan iboratdir. Shu sababli, yangi o‘quv standartlari (DTS) yangi ta’lim realiyalari bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Biroq, internet orqali tarbiya berishning samarali bo‘lishi qiyin, chunki tarbiya jarayoni yuzma-yuz aloqani, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kommunikatsiyani talab qiladi.

Jarayon davomida yuzaga keladigan barcha qiyinchiliklarni umumiy 3 darajaga ajratish mumkin(1.6-rasmga qarang):

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1.6-rasm. Hybrid learning modelini o‘rta ta’lim tizimida joriy qilishdagi muammolar darajasi

Sharoitlarni ta’minlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar:
- Elektron resurslarning ortiqcha xilma-xilligi;
- Maxsus sharoitlarda zarur bo‘lgan resurslarni tanlash;
- Elektron resurslarni (shu jumladan, kontentni) maktabning o‘quv dasturiga moslashtirish.

O‘qitish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar:
- Ko‘proq o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga jalb qilish;
- O‘qituvchilarning motivatsiyasini oshirish;
- O‘qituvchilarning mahoratini oshirish (metodik, axborot); IUP (individuallashgan o‘qitish jarayoni)ni tashkil etish uchun barcha o‘qituvchilar IT-texnologiyalarini bilishi kerak;
- Ba’zi ota-onalarning yangiliklarga qarshi rezistensiyasi (yangi o‘qitish shakllarini joriy qilishga qarshilik).

O‘qish natijalarini olish bilan bog‘liq qiyinchiliklar (o‘qish natijasi – bu kompetent abituriyent):
- O‘quvchilarda aralash o‘qish modellari asosida yuqori motivatsiya shakllantirish;
- Mustaqil o‘qish faoliyatini rejalashtirish va vaqtni boshqarish (tajriba) ko‘nikmalarining past rivojlanishi.

Chet el va mahalliy manbalarda gibrid ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib, «gibrid ta’lim» modelini joriy etishdagi muammolar ko‘p bo‘lib, ularning ko‘plari murakkab xususiyatga ega

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ekanligini aytish mumkin. Gibrid ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishdagi asosiy muammolardan biri — pedagogik kadrlarning professional faoliyatda ularni ishlatishga tayyor emasligi[11].

Didaktik muammolar — bu pedagogik vositalarni tanlash va/yoki ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, ular motivatsiyani, mustaqillikni, mas’uliyatni, hamkorlik qilishga bo‘lgan intilish va qobiliyatni rag‘batlantiradi va boshqalar. Gibrid ta’lim modelini joriy etish bilan bog‘liq muammolar shuningdek, elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning yo‘qligi, o‘qituvchilar yuklamasini taqsimlash, bu esa pedagoglarni xavotirga soladi va elektron muhiti bilan ishlashni istamaslikka olib keladi, ta’lim tashkilotlarining axborot-ta’lim muhitining elektron ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlashga tayyor emasligi, elektron muhitda o‘qitish metodikasining yo‘qligi, elektron texnologiyalar sohasida malaka oshirish tizimining yo‘qligi, o‘quv-metodik materiallar bilan ta’minlashning etishmasligi, gibrid ta’lim modelini ishlatishning istiqbollari va zarurligini anglashning yo‘qligi va boshqalar[12].

SWOT-tahlilining natijalariga ko‘ra, biz gibrid ta’limning afzalliklari va kamchiliklarini aniqladik va ularni jadval ko‘rinishiga keltirdik. SWOT (Kuchli tomonlar — Strengths, Zaif tomonlar — Wyeaknesses, Imkoniyatlar — Opportunitiyes, Tahdidlar — Threats) — bu kompaniyalar, ularning brendlar, mahsulotlar yoki loyihalarining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun strategik tahlil o‘tkazishda professional menejerni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy va umumiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodni iqtisodiyotning uchta sektori (tadbirkorlik, notijorat va davlat tashkilotlari)da, shuningdek, ularning alohida brendlari, mahsulotlari yoki loyihalari bo‘yicha strategik tahlil qilishda qo‘llash mumkin[13].

SWOT-tahlilining natijalariga ko‘ra, biz shunday xulosaga keldikki, «gibrid ta’lim» — bu ta’lim sohasidagi inqilobiy texnologiya bo‘lib, uni chuqur o‘rganish, maktab ta’lim jarayonida sinovdan o‘tkazish kerak, shu bilan birga aniqlangan kuchli va zaif tomonlar, rivojlanish imkoniyatlari va amalga oshirishdagi tahdidlarga e’tibor qaratish lozim. «Gibrid ta’lim» — bu zamonaviy maktabdagi muammolarni hal qilish uchun muhim ta’lim formatlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, maktablardagi o‘quv joylari va pedagogik kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolarga yechim bo‘lishi mumkin (1.5-jadvalga qarang).

[11] ЮНЕСКО, «Ответ на вызовы COVID-19: гибридное обучение как ключевой элемент непрерывного обучения» (COVID-19 response: Hybrid learning as a key element in ensuring continued learning), 2020.

[12] Йеэл Грушка-Кокейн, «Как разработать гибридную программу и вести ее» (How to Design and Teach a Hybrid Class), 2020.

[13] Катькало В.С., Веселова А.С., Смельцова С.В., Методические указания для подготовки курсового проекта «swot-анализ», 2021.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
- Ma’lumotni turli formatlarda taqdim etish imkoniyati (matn, video, audio);	- Kam motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilarni yo‘qotish ehtimoli;
- Interaktivlik (onlayn platformalar va axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim jarayoniga maksimal darajada jalb qilish imkonini beradi);	- Onlayn kurslarni ishlab chiqish uchun talablar va ko‘nikmalar;
- O‘qish jarayonini kuzatish imkoniyati (ota-ona/o‘quvchi/o‘qituvchi onlayn platformalar orqali ta’lim natijalarini kuzatishi mumkin);	- Yomon normativ hujjatlar bazasi;
- Kompyuterdan foydalanish ko‘nikmasi;	- Ushbu formatni qo‘llash bo‘yicha mahalliy tadqiqotlar yo‘qligi;
	- O‘qish natijalari pastligi;
	- Ishlarni topshirish muddati ortib ketishi, agar o‘zini tashkil etish yo‘q bo‘lsa;
	- O‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan kam vaqt o‘tkazilishi.
Imkoniyatlar (O)	**Xavflar (T)**
- Bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarni ko‘proq qamrab olish;	- O‘quv materialini onlayn muhitga o‘tkazishda qiyinchiliklar;
- Ishda ko‘plab resurslarni qo‘llash imkoniyati;	- Doimiy internetga kirishning zarurati;
- O‘qituvchilar va o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (IKT) ko‘nikmalarini oshirish;	- Ota-onalar va o‘qituvchilarning onlayn ta’limga qarshi bo‘lishi;
- O‘qituvchilarning sifatli kadrlar tarkibini oshirish;	- Mahalliy normativ va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasligi;
- O‘quvchilarning uzluksiz mustaqil ishlashini rag‘batlantirish;	- Kompyuterda uzoq vaqt o‘tirishdan sog‘liq muammolarining ortishi;
- O‘quvchilarni geografik jihatdan kengaytirish;	- Doimiy ravishda login va parolni yo‘qotish;
	- IKT texnologiyalaridan yetarlicha foydalanmaslik.

Gibrid ta’lim quyidagi omillar tufayli o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi:

1. **Moslashuvchanlik:** Gibrid ta’lim o‘quvchilarga qachon va qayerda o‘qish kerakligini tanlash imkonini beradi. Bu o‘quvchilarga vaqtlarini mos ravishda rejalashtirish va ta’limni boshqa faoliyatlar bilan birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda, o‘quvchilar o‘z vaqtini samarali ravishda boshqarishlari mumkin.

2. **Shaxsiy yondashuv:** Gibrid ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchilardan shaxsiy yordam olishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar turli xil qayta aloqa vositalarini (testlar, forumlar, masofaviy konsultatsiyalar va boshqalar) ishlatib, o‘zlarining o‘quv jarayonidagi yutuqlarini baholash va tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga javob beradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. **Keng qamrovli kirish imkoniyatlari:** Gibrid ta’limning yana bir afzalligi shundaki, o‘quvchilar dunyoning istalgan nuqtasidan sifatli materiallarga va o‘qituvchilarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Internet va onlayn ta’lim platformalari orqali o‘quvchilar butun dunyo bo‘ylab o‘qituvchilar va bilim manbalaridan foydalanishlari mumkin.

4. **Iqtisodiy samaradorlik:** Gibrid ta’limda, ayniqsa onlayn kurslar ishlab chiqish va tarqatish an’anaviy darsliklar va boshqa materiallarga nisbatan arzon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, onlayn materiallar va resurslar katta xarajatlar talab qilmaydi, shuning uchun ta’lim tizimini yanada arzonroq va kengroq qamrab olish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, gibrid ta’lim o‘quvchilarga sifatli ta’lim olishni ta’minlaydi va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Bu innovasion yondashuv, an’anaviy sinfda o‘qish va onlayn ta’limning eng yaxshi elementlarini birlashtirib, ta’lim jarayonini samarali qiladi. Gibrid ta’lim o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustahkamlash, o‘z vaqtlarini samarali boshqarish va yuqori sifatli ta’lim materiallari va resurslariga osongina kirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Alammary A., Sheard J., Carbone A. (2014) Blended Learning in Higher Education: Three Different Design Approaches. Australasian Journal of Educational Technology. vol. 30, no 4, pp. 440–454. https://doi.org/10.14742/ajet.693
2. Alkanova O.N., Ananin D.P., Bajzarov A.E., Barannikov K.A. et al. (2022) Belaya kniga. Gibridnoe obuchenie [White Book. Hybrid Learning]. Moscow: Grin Print.
3. Barber M., Donnelly K., Rizvi S. (2013) An Avalanche is Coming. Higher Education and the Revolution Ahead. London: The Institute for Public Policy Research.
4. Beatty B.J. (2019) Hybrid-Flexible Course Design: Implementing Student-Directed Hybrid Classes. EdTech Books. https://doi.org/10.59668/33
5. Garrison D.R., Kanuka H. (2004) Blended Learning: Uncovering Its Transformative Potential in Higher Education. The Internet and Higher Education, vol. 7, no 2, pp. 95–105. https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2004.02.001
6. https://izoh.uz/word/dixotomiya
7. Linder K.E. (2017) Fundamentals of Hybrid Teaching and Learning. New Directions for Teaching and Learning, vol. 2017, iss. 149, pp. 11–18. https://doi. org/10.1002/TL.20222
8. Müller C., Mildenberger T. (2021) Facilitating Flexible Learning by Replacing Classroom Time with an Online Learning Environment: A Systematic Review of Blended Learning in Higher Education. Educational Research Review, vol. 34, no 1, Article no 100394. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2021.100394
9. Saichaie K. (2020) Blended, Flipped, and Hybrid Learning: Definitions, Developments, and Directions. New Directions for Teaching and Learning, vol. 2020, iss. 164, pp. 95–104. https://doi.org/10.1002/tl.20428
10. Ulla M.B., Perales W.F. (2022) Hybrid Teaching: Conceptualization through Practice for the Post COVID19 Pandemic Education. Frontiers in Education, vol. 7, pp. 1–8. https://doi.org/10.3389/feduc.2022.924594
11. Йеэл Грушка-Кокейн, «Как разработать гибридную программу и вести ее» (How to Design and Teach a Hybrid Class), 2020.
12. Катькало В.С., Веселова А.С., Смельцова С.В., Методические указания для подготовки курсового проекта «swot-анализ», 2021.
13. ЮНЕСКО, «Ответ на вызовы COVID-19: гибридное обучение как ключевой элемент непрерывного обучения» (COVID-19 response: Hybrid learning as a key element in ensuring continued learning), 2020.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.